

Zulfiyaxonimni yod etib

Bugun bahorning ilk kuni. Bu sana xalqimizning taniqli shoirasi Zulfiya Isroilova tavallud topgan kun ekanligi bilan yanada ahamiyatlidir. Taniqli jamoat arbobi, sadoqat va vafo kuychisi, O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimning 107 yilligi yurtimiz bo'ylab keng nishonlanmoqda.



Shu munosabat bilan bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, "Yerdan foydalanish" kafedrasida katta o'qituvchisi fakultet xotin-qizlar kengashi raisi Z.Xafizova hamda fakultet tyutorlari D.Xursandova, M.Vafoeva, S.Ibragimov, M.Masharipovlar tashabbusi bilan "Adiblar hiyoboni"da joylashgan Zulfiyaxonim haykali oldida shoira tavalludiga bag'ishlangan tadbir tashkil qilindi.



Ushbu tadbirda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi shoira Zulfiya Mo'minova ham ishtirok etdi. Zulfiyaxonimning yuksak insoniy fazilatlari bugun ham yoshlar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi, - deydi shoira Zulfiya Mo'minova. - Uning sermahsul ijodi, go'zal she'riyatini barcha adabiyot ixlosmandlari sevib o'qiydi.



Shoiraning adabiy merosi nihoyatda boy. O'nlab kitoblari o'zbek adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin olgan. U ko'plab taniqli xorij ijodkorlari asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'g'irgan. Zulfiya nafaqat badiiy ijodi bilan, ayni paytda o'zbek ayoliga xos vafo va sadoqat timsoli sifatida ham xalqimiz mehrini qozongandir deb talaba-qizlarimizga ma'lumotlar berib o'tdi. Tadbir doirasida talaba-qizlarimiz Zulfiyaxonim qalamiga mansub she'rlaridan o'qib yig'ilganlarni xushnud etishdi. Zulfiyaxonim haykali poyiga gulchambar qo'yish marosimi bilan boshlangan tadbir barcha talaba-qizlarimizga manzur bo'ldi.



Shuningdek, tadbir so'ngida fakultet jamoasi Abdulla Oripov haykali poyiga ham gullar qo'yishdi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti